

THE CONTENT OF SYSTEMATIC COGNITIVE COMPETENCE OF PRESCHOOL CHILDREN AND ITS PLACE IN EDUCATION

Mirazimova Mukhabbat Normatovna

Teacher of the Department of Theory and Methods of Preschool Education, JDPU.

Abstract: This article presents the content of the systematic cognitive competence of preschool children and its role in education, activities for the development of systematic thinking at an early age, the application of skills in practice, and the social and emotional development of children.

Keywords: Education, systematic cognitive competence, child rearing, systematic thinking at an early age, social and emotional development, development of creativity.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tizimli bilish kompetentligini mazmuni va uning ta'limdagi o'rni, erta yoshda tizimli fikrlashni rivojlantirish, ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, bolalarni ijtimoiy va emotsional rivojlanishi haqidagi faoliyatlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, tizimli bilish kompetentligi, bola tarbiyasi, erta yoshda tizimli fikrlash, ijtimoiy va emotsional rivojlanish, kreativlikni rivojlantirish.

Аннотация: В статье рассматривается содержание системной когнитивной компетентности детей дошкольного возраста и её роль в образовании, деятельность по развитию системного мышления в раннем возрасте, применение навыков на практике, а также социально-эмоциональное развитие детей.

Ключевые слова: образование, системная когнитивная компетентность, воспитание детей, системное мышление в раннем возрасте, социально-эмоциональное развитие, развитие творческих способностей.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti, yuqori salohiyatli, immuniteti mustahkam yoshlari bilan belgilanadi. Ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va salohiyatli yoshlarini tarbiyalashda eng avvalo ta'limning ilk bo'g'ini - maktabgacha ta'lim sohasiga diqqatni qaratmoq lozim. "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarish farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi." - deb ta'kidlaydi o'z nutqida prezident Sh.Mirziyoyev¹.

Maktabgacha ta'lim jadal rivojlanayotgan ta'lim sohasi bo'lib, u butun dunyo va mamlakatimizdagi ta'lim sohasi mutaxassislari va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish ishlari amalga oshirilmoqda [2].

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017 yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarning tizimli bilish kompetentligini mazmuni bolani to'laonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini, bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlar va an'analari bilan tanishtirishni, bolaning ijtimoiy moslashuvini, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashni ta'minlashi kerak.[3]

Maktabgacha ta'lim tizimi, bolalar uchun boshlang'ich va asosiy ta'limni taqdim etadigan muhim bosqichdir. Bu davrda tizimli bilish kompetentligini rivojlantirish, bolalar uchun aqliy va ijtimoiy jihatdan zarur ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, tizimli bilish kompetentligini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tizimli bilish kompetentligining mazmuni. Tizimli bilish kompetentligini quyidagicha ta'riflash mumkin: bu — bolaning turli bilim sohalaridagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni bir-biri bilan bog'lash, sabablilikni tushunish, mantiqiy fikrlash va umumlashtirish qobiliyatidir. Bu kompetentlik quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Kuzatuvchanlik – bu bolaning atrof-muhitdagi hodisa va predmetlarga e'tibor qaratib, ularni sinchkovlik bilan kuzatishi, farqlashi, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash qobiliyatidir. Maktabgacha yosh davri bola tafakkuri, e'tibori va xotirasining faol shakllanish bosqichi bo'lganligi bois, aynan kuzatuvchanlik — tizimli bilish kompetentligining boshlang'ich nuqtasidir.

Mantiqiy fikrlash – bu bolaning voqea-hodisalar orasidagi bog'liqlikni tushunishi, sabablilikni aniqlashi, xulosa chiqarishi va o'z fikrini asoslab bera olishi qobiliyatidir. Maktabgacha yosh davrida bu jarayonlar hali rivojlanish bosqichida bo'ladi, ammo aynan shu davrda mantiqiy fikrlashning poydevori qo'yiladi. Mantiqiy fikr — tizimli bilish kompetentligining yuragi bo'lib, bola tafakkurining izchilligi, ketma-ketlikni tushunishi va tanqidiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tasniflash va guruhlash – bu bolaning predmetlar, hodisalar yoki tushunchalarni ularning umumiy yoki farqli belgilariga qarab ajratish, bir turkumga kiritish, kategoriyalarga ajratish qobiliyatidir. Maktabgacha yosh davrida bu ko'nikma bola tafakkurining muhim rivojlanish bosqichidir, chunki u orqali bola dunyoni tartib bilan anglay boshlaydi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunadi, bilimlarni tizimlashtirishga o'rganadi.

Xotira va e'tibor – bu bolaning axborotni qabul qilish, uni saqlab qolish, kerak bo'lganda esga tushirish va unga diqqat bilan yondashish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira va e'tibor hali faol shakllanish bosqichida bo'ladi, ammo bu ko'nikmalarni erta rivojlantirish bolada mustahkam bilish asoslarini yaratadi.

Bu ikki psixik jarayon tizimli bilish kompetentligining muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki bilim olish, uni eslab qolish va kerakli vaqtda qo'llay olish uchun bola ongli ravishda e'tibor berishni, eslab qolishni va fikrni jamlashni o'rganishi kerak.

Tahlil va sintez – murakkab hodisalarni ajratish va ularni umumlashtirish.

Tahlil — bu bolaning murakkab voqea yoki predmetlarni qismlarga ajratib, ularning har bir elementini alohida tushunishga intilishi.

Sintez esa — ajratilgan qismlarni qayta birlashtirib, yangi butun yoki umumiy tasavvur hosil qilish jarayonidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tahlil va sintez ko'nikmalari tizimli bilish kompetentligining yuqori darajadagi ko'nikmalari bo'lib, ular yordamida bola atrofdagi ma'lumotlarni chuqurroq anglay boshlaydi, o'z fikrini yanada aniq va mantiqiy ravishda ifoda eta oladi.

Tizimli bilish kompetentligini ta'limdagi o'rni. Tizimli bilish kompetentligining shakllanishi bolani maktabga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Chunki:

1. O'quv faoliyatiga tayyorlaydi – bola savol berishni, javob topishni, fikr yuritishni o'rganadi.
2. Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi – yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish imkonini beradi.
3. Muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi – bola muammoni tahlil qilib, yechim topishga harakat qiladi.

Tizimli bilish kompetentligini rivojlantirish usullari.

- ✓ Didaktik o'yinlar – “Nimani ortiqcha?”, “Nima avval, nima keyin?” kabi o'yinlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.
- ✓ Suhbat va savol-javoblar – bolani fikrlashga undaydigan ochiq savollar berish.
- ✓ Kuzatuv mashg'ulotlari – tabiat hodisalari, ijtimoiy holatlar ustida kuzatish olib borish.
- ✓ Modellash va tasvirlash – bolaga predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni chizma va sxemalar orqali tushuntirish.

Maktabgacha ta'limda tizimli bilish kompetentligining o'rni quyidagi jihatlarida ko'rinadi:

Erta yoshda tizimli fikrlashni
rivojlantirish;

Ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash;

Ijtimoiy va emotsional rivojlanish;

O'zgarishlarga moslashuvchanlik;

Kreativlikni rivojlantirish;

1. Erta yoshda tizimli fikrlashni rivojlantirish: Bolalarga tizimli fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish, ularning ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni anglashlariga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda bu ko'nikmalarni o'rganish uchun o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar va faoliyatlar o'rgatiladi.

2. Ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash: Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tajribalaridan kelib chiqib, dunyoni tushunish uchun bir qator eksperimentlar o'tkazadilar. Bular tizimli bilish kompetentligini rivojlantirishda asosiy vosita bo'ladi. Masalan, bolalar biror materialni sinab ko'rib, uning qanday ishlashini va qanday o'zgarishini kuzatadilar.
3. Ijtimoiy va emotsional rivojlanish: Tizimli bilish kompetentligi ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni va o'zaro ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zaro muloqot qilishda tizimli fikrlash orqali boshqalarning hissiy holatlarini anglash, muammolarni birgalikda hal qilishni o'rganadilar.
4. O'zgarishlarga moslashuvchanlik: Tizimli bilish kompetentligini rivojlantirish bolalarni o'zgaruvchan muhitga moslashish va yangi vaziyatlarga tezda javob berish imkoniyatiga ega bo'lishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, yangi bilimlarni o'rganish va yangi vazifalarni bajarish jarayonida muhim ahamiyatga ega.
5. Kreativlikni rivojlantirish: Bolalar tizimli fikrlashni o'rgangan sari yangi g'oyalarni yaratish va ijodiy yechimlarni topishda muvaffaqiyatga erishishadi. Maktabgacha ta'limda bu, bolalarga erkin fikrlash, turli imkoniyatlarni ko'rish va yangi g'oyalar yaratishda yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda bolalarning bilish kompetentligini mazmunini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali metodlar va uning mazmun-mohiyati tarbiyachilar o'z faoliyatida afzal bilgan va ilmiy asoslangan barcha usullardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tizimli bilish kompetentligini mazmuni va uning ta'limdagi o'rni bolalar uchun rivojlanishning muhim jihatlaridan biridir. Maktabgacha ta'limda bu kompetentlikni rivojlantirish, bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Erta yoshda tizimli bilish ko'nikmalarini o'rgatish, kelajakda o'zini rivojlantirishga, muammolarni hal qilishga va jamiyatda faol ishtirok etishga yordam beradi. Shuning uchun, maktabgacha ta'lim jarayonida tizimli bilish kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017 yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi.
2. I.V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi takomillashgan ikkinchi nashri. T: 2022 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi.
5. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova "Pedagogika" -Toshkent, 2013.